

HAYDAR XORAZMIY VA “MUHABBATNOMA”SI — O‘ZBEK MUMTOZ
ADABIYOTIDA ISHQIY-DIDAKTIK AN‘ANALAR IFODASI

Shomurotova Gulbahor

Buxoro davlat pedagogika instituti
Tillar fakulteti 2-O‘TA-24(K) guruh talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17332151>

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘rta asrlarda yashab o‘tgan Hofiz Xorazmiy haqida ham o‘z davrida va hozirgacha qimmatli hisoblangan “Muhabbatnoma” asari haqida ma’lumot aytib o‘tilgan. Xorazmiyning yashab ijod qilgan hayot saboqlari, uning “Muhabbatnoma” asarining til xususiyatlari, tilning fonetik xususiyatlaridan mahorat ila qay darajada foydalanilgani hamda buni o‘rgangan olimlar ishlari ham bir qatorda bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Muhabbatnoma, Hofiz Xorazmiy, Oltin O‘rda, Muhammad Xo‘jabek fikri, o‘zbek tili, tojik tili, fors tili.

Аннотация. В данной статье упоминаются сведения о Хафизе Хорезми, жившем в средние века, и произведении «Муhabbatnama», считавшемся ценным в его время и до сих пор. Описываются также уроки жизни Хорезми, лингвистические особенности его произведения «Муhabbatnama», умелое использование фонетических особенностей языка, труды ученых, его изучавших.

Ключевые слова: Муhabbatnama, Хафиз Хорезми, Золотая Орда, мнение Мухаммада Ходжабека, узбекский язык, таджикский язык, персидский язык.

Abstract. In this article, information about Hafiz Khorezmi, who lived in the middle ages, and the work "Muhabbatnama", which was considered valuable in his time and until now, is mentioned. The lessons of Khorezmi's life, the linguistic features of his work "Muhabbatnama", the skillful use of the phonetic features of the language, and the works of scientists who studied it are also described.

Keywords: Muhabbatnama, Hafiz Khorezmi, Golden Horde, Muhammad Khojabek's opinion, Uzbek language, Tajik language, Persian language.

Haydar Xorazmiyning “**Muhabbatnoma**” asari o‘zbek adabiyotining ilk yirik epistolaryar dostonlaridan biri bo‘lib, unda muhabbat, sadoqat, insoniy tuyg‘ular va ma’naviy qadriyatlar yuksak badiiy mahorat bilan ifodalangan. Asar o‘z davri adabiy muhitida nafaqat shaxsiy his-tuyg‘ularni ifodalash, balki muhabbatni ijtimoiy-axloqiy hodisa sifatida talqin etishi bilan ham alohida ahamiyatga ega. Haydar Xorazmiy o‘zining nafis uslubi, she’riy ohangi va obrazli ifodasi orqali o‘zbek mumtoz adabiyotida yangi yo‘nalish yaratib, keyingi adabiy an‘analarga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatgan.

“Noma” janrining ilk namunasi bo‘lgan «Muhabbatnoma» 1353 - yilda Hofiz Xorazmiy tomonidan yozilgan. Hofiz Xorazmiyning hayoti haqida aniq ma’lumotlar keltirilmagan uning hayoti haqida qisman ma’lumotlarni uning mashhur nomasi “Muhabbatnoma”dan bilib olishimiz mumkin. «Muhabbatnoma»da faqat nomalar emas, balki g‘azal, qit’a, fard va kichik lirik janrlardan iborat. «Muhabbatnoma» o‘n bir nomadan iborat bo‘lgan. «Muhabbatnoma» ikki nusxada qo‘lyozma shaklida yozilgan.

1. Milodiy 1432- yil Yazd shahrida Mir Jaloliddin degan kishi taklifi bilan Boqi Mansur nomli xattot uyg'ur yozuvida kechirgan va bu nusxa 364 baytdan iborat bo'lgan.

2. Milodiy 1508-1509- yillarda arab yozuvi asosida turkiy alifboda ko'chirilgan nusxa.

Bu nusxa qisman to'laroq bo'lib, 474 baytdan iborat bo'lgan.

Ayni damda har ikkala nusxasi ham Londondagi Britaniya muzeyida saqlanmoqda.

«Muhabbatnoma»da nomalardan tashqari kelgan masnaviylarni shoir alohida qilib tepasida sarlavha bilan keltirgan. Shoir asarni shu qadar mahorat bilan ijod qilganki asarda zullisonaynlik (ikki tilda ijod qilmoq) uslubidan oxirigacha amal qilgan. Shoir dastlab o'n nomadan iborat asar yozishni mo'ljallagan, ammo keyin yana nima qo'shgan.

«Muhabbatnoma» o'z davrida o'zining uslubida bo'lib, uning ta'sirida Sayyid Ahmadning «Taashshuqnoma», Xo'jandiyning «Latofatnoma», Yusuf Amiriyning «Dahnama» kabi asarlari yaratilgan.

«Muhabbatnoma» asarining kirish qismida keltirilishicha, Oltin O'rda hududida hukmronlik qilgan Muhammad Xo'jabek shoirga qarata "forsiy tilda yozgan va qalblarni rom etgan ko'p asarlaring bor, sen muhabbat mavzusini yozishda ko'plardan o'tding, «shakartek til»ing bila olamni egallading bu qish mening yonimda bo'lib, bizning tilda bir kitob yozsang" deb aytadi.

Muallif asarni shunday mahoratli ul bilan ishlaganki, bu parchalarni hukmdorga emas yorga bag'ishlab o'qisangiz ham mano chiqaveradi, ish bu yerda hukmdorga muhabbatdan sevikli yorga, undan esa yaratgan egamga muhabbatga aylana borgan.

Xorazmiy asarida ma'nodosh so'zlarni mahorat ila qo'llagan. U umumturkiy ko'rk va forsiy husn, arabiy Jamol va forsiy chehra, arabiy saodat va forsiy baxt so'zlarini ma'nodosh so'zlar sifatida qo'llash orqali asarning ta'sirchanligini yanada oshirgan. Shoir diniy sig'inish va e'tiqod qilishning obykti sifatida namoyon bo'ladigan ilohiy kuchni arabiy Haq, forsiy Xudo, Yazdon va umumturkiy Tangri, Yaratuvchi kabi sinonim so'zlar bilan yoritgan. Asarda ayrim so'zlar ko'chma ma'nolari bilan yanada joziba berilgan. Masalan: arabiy davlat so'zi ko'chma ma'nosida forsiy baxt so'zi bilan sinonim sifatida qo'llangan. Bundan tashqari asardagi umumturkiy o'lum (o'lim) va arabiy hayot qadimgi turkiy uchmoq va forsiy do'zax, forsiy dard va darmon arabiy jafo va vafo so'zlari o'zaro qarshilantirib tazod badiiy san'ati voqelantirilgan.

"Iltimosin aytur" fasli

Muni kim is birla o'qug'ay

Haqiqat olamini munda bilay

Haqiqat - Allohga yetishni anglatadi.

«Muhabbatnoma» o'z nomi bilan ham ishq-sevgi asaridir. Asarda yor sevgilini jannatdagi hurlardan ham yuqori qo'yadi.

Soching bir torina ming hur yetmas,

Yuzungning nurina ming nur yetmas.

Agar bersa suyurg'ab haq taolo,

Kerakmas sensizin firdavsi ahli.

Ko'rinib turibdiki, «Muhabbatnoma» dunyoviy mohiyatga ega. Shoir real hayotni jannat va uning hurlaridan ham yuqori qo'yadi. Bu esa diniy -mistik adabiyotga qarshi jasoratli kurash demakdir.

Xulosa qilib aytganda, shoir turkiy va forsiy tillarda she'rlar yozgan, devon tuzgan. U "Mahzan ul-Asror" dostoni ("Gulshan ul-Asror" nomi bilan ham ataladi) orqali axloqiy-falsafiy mavzularni, insoniy fazilatlarni, adolat, saxiylik, rostgo'ylik kabi qadriyatlarni targ'ib etgan.

"Muhabbatnoma" asari — shoirning ishqiy, sevgi mavzusidagi she'riy nomalardan iborat bo'lgan doston formatida, oshiq va mahbuba munosabatlarini uyg'un she'riy til va didaktik-estetik ohangda tasvirlagan asar sifatida adabiyotimizda o'rin olgan. Xorazmiy she'riy hikoya (hikoya she'riy shaklda) janrini rivojlantirishda boshlang'ichlardan biri bo'lgan. Shuningdek, uning asarlari turkiy til boyligi va adabiy uslub jihatidan ham ahamiyatga molik bo'lgan, forsiy-turkiy she'riyatda almashinuv va ta'sirga ochiq bo'lgan.

Haydar Xorazmiy O'zbek mumtoz adabiyotining ilk davrlarida muhabbat, axloq-odob, she'riy hikoya, noma kabi janrlarning shakllanishida muhim poydevor tashlagan shoir. Uning "Muhabbatnoma"si adabiyot tarixida sevgi-ishq mavzusini turkiy she'riy nomalar orqali ifoda etish va noma janrini rivojlantirish nuqtai nazaridan alohida ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Y.S. Saidov, R.R.Sayfullayeva «Eski o'zbek tili yodnomalari tili va uslubi» Toshkent - 2021
2. Baxshulloyevna, S. M. (2022). «ALPOMISH» DOSTONI-VATANPARVARLIK FAZILATLARIDAN SABOQ BERUVCHI MA'NAVIY DURDONA. *Scientific Impulse*, 1(4), 1426-1430.
3. Sharipova, M. B., & Ravshanova, G. F. Q. (2021). QAHRAMONLIK DOSTONLARINING O'ZIGA XOSLIGI: MILLIY RUH VA AN'ANALAR. *Scientific progress*, 2(7), 1139-1144.
4. Шарипова, М. Б., & Саъдуллаева, М. Б. К. (2020). РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ ДЕТЕЙ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ. *Проблемы педагогики*, (6 (51)), 58-60.
5. Sharipova, M. (2020). O'quvchi yoshlar tarbiyasida o'lmas an'ana va marosimlarning ahamiyati. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 1(1).
6. Sharipova, M. B., & Nozirova, M. J. Q. (2021). O'ZBEK XALQ DOSTONLARINI O'QITISHDA KOMPYUTER IMKONIYATLARI. *Scientific progress*, 2(7), 1102-1108.
7. Sharipova, M. B., & Farmonova, G. S. Q. (2021). NIKOHDAN SO'NG ADO ETILADIGAN URF-ODATLAR TASVIRI ("ALPOMISH" DOSTONI MISOLIDA). *Scientific progress*, 2(7), 1125-1129.
8. Sharipova, M. B. (2021). XALQ DOSTONLARIDA SOVCHILIK MAROSIMI BADIY IFODASI ("ALPOMISH" DOSTONI MISOLIDA). *Scientific progress*, 2(7), 1120-1124.
9. Sharipova, M. B., & Mirzayeva, X. N. (2021). XALQIMIZ MADANIYATINING HAYOTBAXSH SARCHASHMASI. *Scientific progress*, 2(7), 1135-1138.
10. Шарипова, М. Б., & Нейматова, Ш. Н. (2020). Формирование эстетической культуры воспитанников дошкольных образовательных учреждений. *Вестник магистратуры*, (3-3 (102)), 113-114.
11. Sharipova, M. (2020). Qahramonlik eposi-milliy madaniyatimizning nodir hazinasi ("Alpomish" dostoni misolida). *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 1(1).

12. MA'NAVIY, Y. A. R. V., & O'RNI, D. B. Q. E. DOI: 10.53885/edinres. 2021.17. 14.046 Sharipova Maxbuba Baxshilloyevna BuxDU. *Maktabgacha ta'lim*.
13. Sharipova, M. B., & Shokirova, N. Z. Q. (2021). «ALPOMISH» DOSTONI–BADIY BARKAMOL ASAR. *Scientific progress*, 2(7), 1145-1148.
14. Sharipova, M. (2020). ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРЯДОВ В ЭПОСЕ «АЛПОМИШ». *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 1(1).
15. Шарипова, М. Б., & Хусаинова, З. Х. ВЕСТНИК НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ. *ВЕСТНИК НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ Учредители: Олимп*, 106-108.